



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**

TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



SHAHRISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
Davlat oliy ta'lim tashkiloti

70111102 – Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (huquq ta'limi)
Magistratura



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

**70111102 – Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi
(huquq ta'limi)**

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

SHAHRISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: VALIJONOV DALER DILSHODOVICH

**O'zbekistan Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat
siyosati va boshqaruvi akademiyasi**

fan doktori (DSc)



A'zo: YUSUPOV SARDORBЕК BAXODIROVICH

Toshkent Davlat Yuridik Universiteti

fan doktori (DSc)

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260077
Xulosa raqami	819
Xulosa sanasi	26.06.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"SHAHARISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz shahri, Ipak yo'li ko'chasi, 82-uy. Guvohnoma: MAS № 0000245, 08.07.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (huquq ta'limi)
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	70111102
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	MAS № 0000245, 08.07.2026
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	70111102 – Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (huquq ta'limi)
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	70111102 – Methodology of Teaching Social Sciences and Humanities (Law Education)
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	70111102 – Методика преподавания социально-гуманитарных наук (правовое образование)
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	120 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	2 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	7-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Huquqshunos, pedagog-tadqiqotchi
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	50 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz shahri, Ipak yo'li ko'chasi, 82-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

1-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida 70111102 – Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (huquq ta'limi) magistratura ta'lim dasturini amalga oshirish uchun mas'ul tarkibiy tuzilma sifatida Ijtimoiy fanlar kafedrasini tashkil etilgani aniqlandi. Kafedra faoliyati kafedra nizomi, lavozim yo'riqnomalari hamda oliy ta'lim tizimining amaldagi normativ-huquqiy hujjatlari asosida tartibga solingan bo'lib, uning vakolatlari va funksional vazifalari aniq belgilangan. Ta'lim dasturining sifatini ta'minlash va uni muntazam takomillashtirish bo'yicha ichki mexanizmlar hamda istiqbolli rivojlantirish rejasi shakllantirilgan. Huquq ta'limi yo'nalishidagi magistratura dasturi uchun sud, prokuratura, advokatura va boshqa huquqni qo'llash amaliyoti bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar bilan hamkorlikni samarali yo'lga qo'yish magistrantlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq shakllantirilgan.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

2-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida 70111102 – Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (huquq ta'limi) magistratura ta'lim dasturi tarkibida o'quv reja, o'quv jarayoni grafigi, 26 ta modul sillabusi hamda malaka talablari shakllantirilgani, ta'lim dasturining umumiy hajmi 120 kredit (3600 soat) etib belgilanganligi aniqlandi. Ta'lim dasturining maqsadlari, kutilayotgan o'quv natijalari va shakllantiriladigan kompetensiyalar o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, ta'lim mazmuni amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablariga

muvofig ishlab chiqilgan. Har bir modul bo'yicha sillabuslarning batafsil ishlab chiqilgani ta'lim dasturi mazmunini tizimli tashkil etish, o'quv natijalarini izchil shakllantirish va ularni monitoring qilishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Huquq ta'limi yo'nalishida huquqiy bilimlarni zamonaviy o'qitish metodikasi bilan uyg'unlashtirish magistrantlarning kasbiy va ilmiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim dasturi yakunida bitiruvchilarga "Huquqshunos, pedagog-tadqiqotchi" kvalifikatsiyasi berilishi mazkur kompetensiyalarni to'liq shakllantirishni taqozo etadi. Ta'lim dasturi mazmuni ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq shakllantirilgan.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

3-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida ta'lim dasturi bo'yicha o'quv dasturlari (sillabuslar) namunalari, fan (modul) ishchi o'quv dasturlari, milliy va xalqaro standartlar bilan moslik jadvallari hamda ish beruvchilar bilan o'tkazilgan muhokamalar bayonnomalari taqdim etilgani aniqlandi. Ekspert komissiyasining qo'shimcha so'rovlari asosida dalillovchi materiallar to'ldirilgan bo'lib, ta'lim dasturining mazmuni va uni amalga oshirish mexanizmlari yetarli darajada asoslangan. Milliy va xalqaro standartlar bilan moslik jadvallarining ishlab chiqilgani ta'lim dasturining xalqaro qiyoslanuvchanligini ta'minlash hamda uning zamonaviy talablarga muvofiqligini baholashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Baholash tizimi shaffoflik, xolislik va akademik halollik tamoyillari asosida tashkil etilgan bo'lib, o'quv jarayoni va baholash mexanizmlari ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq shakllantirilgan.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

4-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida 70111102 – Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (huquq ta'limi) magistratura ta'lim dasturi bo'yicha qabul jarayonlari amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida tashkil etilgani aniqlandi. Qabulga oid ma'lumotlar oliy ta'lim muassasasining rasmiy veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy axborot resurslari orqali muntazam e'lon qilib borilishi abituriyentlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun axborotning ochiqligi va shaffofligini ta'minlaydi. Qabul jarayoniga

oid ma'lumotlarning bir necha axborot kanallari orqali tarqatilishi nomzodlarning teng axborot olish imkoniyatlarini yaratishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Magistrantlarni akademik, ilmiy va kasbiy jihatdan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari shakllantirilgan bo'lib, talabalar faoliyatini boshqarish tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq tashkil etilgan.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

5-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida 70111102 – Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (huquq ta'limi) magistratura ta'lim dasturini amalga oshirish uchun professor-o'qituvchilar tarkibi son jihatdan yetarli darajada shakllantirilgani aniqlandi. Ijtimoiy fanlar kafedrasida 2025–2026 o'quv yili uchun jami 32,0 shtat birligi ajratilgan bo'lib, 40 nafar professor-o'qituvchi faoliyat yuritishi ta'lim dasturini sifatli amalga oshirish uchun zarur akademik salohiyat mavjudligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, huquq ta'limi yo'nalishiga ixtisoslashgan professor-o'qituvchilar ulushini oshirish, ilmiy salohiyat darajasini mustahkamlash, kadrlarga bo'lgan ehtiyojni muntazam tahlil qilish hamda kadrlar zaxirasini shakllantirish bo'yicha ichki mexanizmlarni yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq deb topildi. Ilmiy salohiyatni oshirish va inson resurslarini rivojlantirishga qaratilgan istiqbolli rejalarning mavjudligi ta'lim dasturining barqaror rivojlanishini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Inson resurslarini boshqarish tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq shakllantirilgan.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

6-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida 70111102 – Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (huquq ta'limi) magistratura ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur moddiy-texnik baza va o'quv infratuzilmasi shakllantirilgani aniqlandi. Seminar va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish uchun zarur texnik vositalar, jihozlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda o'quv-uslubiy materiallar bilan ta'minlanganlik ta'lim dasturining maqsadlari va kutilayotgan o'quv natijalariga mos keladi. Huquq ta'limi yo'nalishida Lex.uz va boshqa huquqiy axborot bazalaridan foydalanish imkoniyati, shuningdek o'quv sud zalining mavjudligi magistrantlarda huquqni qo'llash, huquqiy tahlil qilish va kasbiy qarorlar qabul qilish kompetensiyalarini amaliy muhitda

shakllantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Moddiy-texnik ta'minot tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq shakllantirilgan.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Huquq ta'limi yo'nalishiga ixtisoslashgan kadrlar ulushi va ilmiy salohiyat darajasini takomillashtirish zarur.
- ✓ Kadrlar ehtiyoji tahlili va kadrlar zaxirasini shakllantirish bo'yicha ichki mexanizmlarni kuchaytirish maqsadga muvofiq.
- ✓ Huquqiy ma'lumotlar bazalari va o'quv sud zali imkoniyatlarini kengaytirish tavsiya etiladi.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Huquq ta'limi yo'nalishiga ixtisoslashgan, ilmiy darajaga ega kadrlarni jalb etish.
- ✓ Kadrlar ehtiyoji tahlili va zaxira shakllantirish mexanizmlarini hujjatlashtirish.
- ✓ Huquqiy ma'lumotlar bazalari va o'quv sud zali bazasini kengaytirish.
- ✓ Huquqiy amaliyot muassasalari bilan amaliyot hamkorligini rivojlantirish.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, "SHAHNISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI" DAVLAT MUASSASASIDA 70111102 – Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (huquq ta'limi) magistratura ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy ta'minot, tashkiliy-boshqaruv tizimi, ta'lim dasturi mazmuni, o'quv jarayoni, magistrantlar faoliyatini tashkil etish, inson resurslari hamda moddiy-texnik ta'minot kompleks tahlil qilindi. Tahlillar natijasida ta'lim dasturini amalga oshirish uchun mas'ul tarkibiy tuzilma sifatida Ijtimoiy fanlar kafedrasini tashkil etilgani, uning faoliyati kafedra nizomi, lavozim yo'riqnomalari hamda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida tartibga solingani aniqlandi. Ta'lim dasturi tarkibida o'quv reja, o'quv jarayoni grafigi, 26 ta modul sillabusi hamda malaka talablari shakllantirilgan bo'lib, dastur hajmi 120 kredit (3600 soat) etib belgilangan. O'quv dasturlari, milliy va xalqaro standartlar bilan moslik jadvallari hamda ish beruvchilar bilan o'tkazilgan

muhoakamar bayonnomalari taqdim etilgan. Qabul jarayoniga oid ma'lumotlar oliy ta'lim muassasasining rasmiy veb-sayti va boshqa axborot resurslari orqali muntazam e'lon qilinadi. Ijtimoiy fanlar kafedrasida 2025–2026 o'quv yili uchun 32,0 shtat birligi ajratilgan bo'lib, 40 nafar professor-o'qituvchi faoliyat yuritadi. Ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur moddiy-texnik baza, seminar va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishga xizmat qiluvchi texnik vositalar, o'quv-uslubiy materiallar hamda huquqiy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi infratuzilma shakllantirilgan. Baholash yakunlariga ko'ra, ta'lim dasturining barcha yo'nalishlari (boblari) belgilangan akkreditatsiya mezonlariga muvofiq deb topildi. Aniqlangan ayrim jihatlar ta'lim dasturini amalga oshirishga to'sqinlik qilmaydi hamda uni yanada takomillashtirishga qaratilgan tavsiyaviy xususiyatga ega. Umuman olganda, 70111102 – Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (huquq ta'limi) magistratura ta'lim dasturi belgilangan akkreditatsiya mezonlari va talablariga muvofiq hisoblanadi. Shu asosda ta'lim dasturi MUVOFIQ deb topildi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	02.07.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	4-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

